

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

З.Т.Исаева	
«Системный подход к анализу парадигматики и синтагматики»	1438
Г.М.Мамаджанова	
Язык как фактор формирования культурных кодов	1442
V.A.Giyosova	
Reference units for children with glutenomies	1446
З.Ш.Нуридинова	
Функции художественного перевода в контексте межкультурной коммуникации	1449
М.Т.Xalilova	
Publitsistik uslubga xos mikromatnlarning funksional-semantik belgilari.....	1452
Z.H.Ubaydullayeva	
Hissiyotlar ifodalanishida psixofiziologiya va etnik xoslanish	1457
A.A.Shodiyeva	
Presuppozitsiya pragmatikaning asosiy obyektlaridan biri sifatida	1462
S.M.Qurbanova	
Antroposentrik lingvistika tarmoqlari	1466
M.A.Xusanova	
Badiiy nutqda qo'llangan og'zaki nutq unsurlarining vazifalariga doir	1473



ANTROPOSENTRIK LINGVISTIKA TARMOQLARI

NETWORKS OF ANTHROPOCENTRIC LINGUISTICS

СЕТИ АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКОЙ ЛИНГВИСТИКИ

Qurbanova Sayyoraxon Maxamadaliyevna 

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotasiya

Jahonda fan va texnika rivojlanib borar ekan, har qanday fan o'zining aniq va samarali tадqiqot usullariga ega bo'lib boradi. Shu jumladan, tilshunoslik fanining eng muhim, birlamchi funksiyasi bu kishilar o'tasidagi kommunikativlik sirlarini ochishdan iborat. Aytish mumkinki, bunda hatto grammatik bilimlar ikkinchi planga o'tadi. Kommunikativlik sifatlarini tadqiqot markaziga tortish tilshunoslik faniga yangicha yondashuvlarni olib kiradi, bu esa uning terminlari tarkibi ham o'zgarishini talab etadi. Tilshunoslik fani tekshirish ob'ektini inson tafakkuri hoslasi bo'lgan til materialidan insonning o'zini o'rganishga o'zgartirish bilan uning masalalari jamiyat uchun keskin dolzarblashadi. Unda tilshunoslik bo'limlarining dolzarblik darajasi ham o'zgaradi.

Tadqiqot olib borishda tavsifly, differensial semantik va germenevistik metodlardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari tilshunoslikning o'rganish masalalariga yondashuvni samarali o'zgartirishga xizmat qiladi. Unda tilni tadqiq etishda pragmatik maqsad birlamchi ekanligi haqidagi g'oya ilgari surilgan.

Tadqiqotning xulosasi sifatida antroposentrik paradigma tarkibiga kiruvchi ilmiy yo'nalishlar jadvali ishlab chiqilgan. Bunden tashqari tilning pragmatik maqsadni ifoda etishga yo'niltinilganligi nuqtayi nazaridan til sathlarning muhimligi bo'yicha jiddiy nazariy fikrlar bayon etilgan.

Abstract

As science and technology develop in the world, any science has its own precise and effective research methods. Among them, the most important, primary function of the science of linguistics is to reveal the secrets of communication between people. It can be said that even grammatical knowledge may be secondary. Bringing communicative qualities to the center of research can give new approaches to the science of linguistics, which requires a change in the composition of its terms. By changing the object of investigation of the science of linguistics from the language material, which is a product of human thought, to the study of the person himself, its issues become acutely relevant for society. The degree of relevance of linguistics departments will also change.

Descriptive, differential semantic and hermeneutic techniques were used to carry out the study.

The results of the study serve to effectively change the approach of linguistics to learning issues. It put forward the idea that the pragmatic goal is primary in Language Research.

As a conclusion of the study, a table of scientific directions is developed, which is part of the anthropocentric paradigm. In addition, serious theoretical opinions on the importance of language levels have been expressed in terms of the point at which language is directed towards the expression of a pragmatic goal.

Аннотация

По мере развития науки и техники в мире любая наука приобретает все более точные и эффективные методы исследования. В том числе, важнейшей, первоочередной функцией лингвистической науки является раскрытие тайн коммуникативности между людьми. Можно сказать, что при этом даже грамматические знания отходят на второй план. Привлечение в Центр исследования качества коммуникативности привносит в лингвистическую науку новые подходы, что требует изменения и состава ее терминов. С изменением объекта исследования лингвистической науки с языкового материала, являющегося производным человеческого мышления, на изучение самого человека, его вопросы становятся остро актуальными для общества. Меняется в нем и уровень актуальности языковых разделов.

При проведении исследований использовались описательный, дифференциально-семантический и герменевтический методы.

Результаты исследований служат для эффективного изменения подхода лингвистики к вопросам обучения. Он выделил идею о том, что прагматическая цель является первичной в изучении языка.

В заключение исследования была разработана таблица научных направлений, входящих в антропоцентрическую парадигму. Кроме того, высказываются серьезные теоретические соображения о важности языковых уровней с точки зрения ориентации языка на выражение прагматической цели.

TILSHUNOSLIK

Kalit so'zlar: antroposentrik nazariya, semantika, pragmalingvistika, psixolingvistika, sosiolingvistika, grammatika, tilshunoslik bo'limlari, tilshunoslik sathlari.

Key words: anthropocentric theory, semantics, pragmatics, psycholinguistics, sociolinguistics, grammar, sections of linguistics, levels of linguistics.

Ключевые слова: антропоцентрическая теория, семантика, прагмалингвистика, психолингвистика, социолингвистика, грамматика, разделы лингвистики, уровни лингвистики.

KIRISH

Tilshunoslikda uzoq yillar davomida tilni o'rganish bilan tilni o'qitishni farqlanmay keldi. Til ilmida uni ilmiy bilish va uni amalda qo'llay bilish keskin farq qiladi. Bunda tilni ilmiy bilish uning grammatik qoidalari asosida o'qitsa, amaliy qo'llashni bilish pragmatik bilimlarni talab qiladi [1-6].

Pragmatika tilshunoslik uchun grammatikadan ko'ra muhimroq. Pragmatik bilimlarni egallash tildan foydalanuvchilarning har qaysi vakili uchun zarur. Tilshunoslikning pragmalingvistika sohasi uni eng dolzarb ijtimoiy masalalarini kun tartibiga qo'yadi [7-10].

Pragmalingvistika, psixolingvistika, sosiolingvistika va boshqa qator fan tarmoqlari tilshunoslikda antroposentrik yondashuvning paydo bo'lishi natijasida maydonga keldi [11-12].

Antroposentrik yondashuv ta'sirida shakllanib borayotgan sohalar tobora rivojlanib, til bilan bog'liq qator masalalarga yechim topilmoqda. Ammo antroposentrizmning o'zi yangi tadqiqot yo'nalishi sifatida fanda katta muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Sababi antroposentrik yondashuvga asoslangan tadqiqotlar tarkibi salmoqli mundarijani tashkil qilib, masalalar mohiyatiga ko'ra tarkibiy paradigmalarga bo'linadi. Mazkur ilmiy paradigmalar tartibi, muammolarning sohalar o'rtaida to'g'ri taqsimlanishi, sohalar o'rganuvchi masalalar ko'lami, ayrim masalalarda sohalararo aloqadorlik jihatlarini aniq belgilash zarur. [13-18]. Bu antroposentrik paradigmaga tegishli sohalarning mukammal terminologiyasini shakllantirishga asos bo'ladi. Terminologiya har bir fan sohasining tayanchi bo'lib xizmat qiladi [19].


ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Antroposentrik tadqiqotlar tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlarini o'z ichiga oladi. Ilmiy qarashlar jahon tilshunosligida nazariy asoslarga ega. Jumladan, V. fon Gumboldt [20], ingliz tilshunoslarning tajriba va kuzatuvlari [21-27], rus tilshunoslik maktablari vakillarining ilmiy xulosalari [28-34], o'zbek tilshunosligida amalga oshirilgan qator tadqiqotlar [35-40] mavjud.

Ma'lumki, tilda mazmun gap orqali anglashiladi. Gap mazmuni uch aspektga asoslanadi [1-jadval]. Nemis olimi Georg Klaus gap sintaktik semantikasida sigmatikani alohida ajratishni taklif qildi [41; 2-jadval]. sintaktika va pragmatikaga asoslanadi. Pragmatika o'z navbatida sun'iy intellekt, antroposentizm hamda korpus lingvistikasidan tarkib topadi. Ular orasida antroposentizm yo'nalishi kengqamroviligi bilan ajralib turadi. Antroposentrik izlanishlarda tadqiqotning asosiy diqqat-e'tiborida shaxs va uning tildan foydalanish holatidagi o'ziga xoslik jihatlari turadi. Zamonaviy tilshunoslikning soha va tarmoqlari tadqiqot materiali sanaladi. Rus olimi N.M.Vaxtel atnroposentrik yo'nalishlarning paradigmatic jadvalini ishlab chiqqan [42; 3-jadval]. Antroposentrik tahlillarda muloqotda qo'llanilgan til materiallari birinchi o'rinda matn muallifi va uning shaxs xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.



1-jadval. Gap semantikasining uch asosi.



2-jadval. Gap semantikasi bo'yicha G.Klaus jadvali.



3-jadval. N.M.Vaxtelning nutqiy faoliyat nazariyasi bo'yicha jadvali.

Tadqiqotlarni tanqidiy o'rGANISH asosida shuni aniqlash mumkinki, nutqiy faoliyat nazariyasi tilning eng muhim qismi bo'lGANI holda eng kam o'rganilgan. Unda hal qilinishi lozim bo'lgan bir qancha muammolar bor.

NATIJA VA MUHOKAMA

Zamonaviy tilshunoslikda inson omili nazarda tutilgan ilmiy paradigmalarga yangi yo'nalishlarning barchasi kiritiladi. Bunda tilshunoslikning yirik paradigmalari bo'lgan semantika, sintaktika va pragmatikani farqlash bilan birga ularning keyingi tarkibiy qismlarini quyidagicha ajratish mumkin. Pragmatika, birinchi navbatda, antroposentrik yo'nalishlarni o'z ichiga qamrab oladi. Avvalo, antroposentrizm nutqiy jarayonlarda namoyon bo'ladi. Nutqiy vaziyatlarni taddiq etish


TILSHUNOSLIK

til hodisalarini belgilashga asos bo'ladi. Shu asosga ko'ra, antroposentrik nazariya tarkibiga kiruvchi masalalar to'rtta katta tarmoqqa ajratildi. Ular: 1) tilning tafakkur bilan bog'liq jihatlari; 2) tilning jamiyat bilan bog'liq jihatlari; 3) tilning madaniyat-san'at bilan bog'liq jihatlari; 4) tilning salomatlik bilan bog'liq jihatlarini o'rganuvchi.

Antroposentrik yo'naliishlarning izchil paradigmasini generativ lingvistika, kognitiv tilshunoslik, mentalingvistika, neyrolingvistika, psixolingvistika, pragmalingvistika, etnolingvistika, sosiolingvistika, diskurs lingvistikasi, stilistika, lingvopoetika, lingvokulturologiya tarzidagi tasnifi ishlab chiqildi [4-jadval]. Jadval asosida farqi aniqlangan fan tarmoqlari terminologik tarkibini belgilash tamoyillari ishlab chiqildi. Unga ko'ra, tilshunoslikda tildan foydalanish va tilni o'qitish yoki o'rgatish tamoyillari farqlanishi lozim. Tilni o'qitish va o'rgatishda grammatic qoidalarga ko'proq asoslanib, nutq vaziyatlari misol tariqasida keltiriladi. Uning pragmatik maqsadni aniqlashga qaratilgan antroposentrik tahlilida esa avvalo, shu tilda so'zlashuvchi xalq madaniyati, ularning azaldan shakllangan nutqiy odatlari, nutq vaziyatlari harakatlarning ma'no-mazmuni va samaradorligi, maqsadli muloqotni amalga oshirish sirlari o'rganiladi. Bunda fan tilni gender farqlari, yosh, irq va boshqa ko'plab ijtimoiy belgililar asosida o'rganadi.

Tilni bunday yangi yondashuv asosida o'rganishda til sathlari hamda birliklarining tutgan roli va mavqeい o'zgaradi. Sintaksis (jumladan, makrosintaksis ham) mazmuni aniq va belgilari qat'iy bo'lgan til birliklari hisoblanib, ular nihoyatda kam muhimlik darajasiga ega. Sababi matnda muloqot ishtirokchilarining shaxs xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar foydalanuvchida fikmi ifodalash uchun vosita turlarining xilma-xilligi va tanlov imkoniyatining kengligi, qat'ylashmaganligi bilan samarali kechadi. Til birliklarining morfologik xususiyatlarga ko'ra muhimlik darajasi ham xuddi yuqoridagi qoida asosida amalga oshadi. Ya'ni tilda ma'no ifodalashga xizmat qiluvchi ot, fe'l, sifat yoki son turkumlari (ayniqsa, qo'llanish chastotasi baland va neytral bo'lgan o'z ma'nosida qo'llanilgan birliklar)da shaxs xususiyatlari kam namoyon bo'ladi. Olmosh, atoqli ot, yuklamalarning esa muhimligi yuqori bo'ladi. Masalan, Salim, Salimjon, Salimchik, Salimm shakllari pragmatikasi matn tarkibidagi turlicha nutq vaziyatlarni ifoda etadi. Konversiyaga uchragan birliklar pragmatika uchun nihoyatda qimmatlidir. Demak, tilning muhim grammatic xususiyatlarini o'zida aks ettirib, uning o'zgarmas umumiyo qonuniyatlarini qanchalik yuqori nisbatda anglatish barobarida birliklarning pragmatika uchun ahamiyati shunchalik pasayib boradi. Morfemik va leksik sath birliklari o'zida mavjud bo'lgan variantlilik hisobidan antroposentrik tadqiqotlar uchun muhimlik kasb etadi. Bunda morfem birliklarning sheva yoki o'zga tildan o'zlashganlik belgilari muhim. Leksik birliklarning pragmatika uchun eng qiziqarlisi bu – sinonimlar yoki variantdosh so'zlardir. Masalan, o'zbek tilida do'st, o'rtoq, jo'ra, oshna, og'ayni, birodar, aka (keng ma'noda), uka (keng ma'noda) leksemalari bir sinonimik qatorda joylashib, muloqotda ulardan qay birini tanlashi bilan so'zlovchi va tinglovchining shaxs xususiyatlari namoyon bo'ladi. Bunda so'z ma'nolarining ko'chishi o'ta muhim hodisa sifatida o'rganiladi. Ayniqsa, okkazional tarzda qo'llanilgan birliklarda pragmatik xususiyatlar yanada yorqin namoyon bo'ladi.

Tilshunoslikda ma'no-mazmun anglatishda eng kam imkoniyatga ega hisoblangan fonetik sath birliklari pragmatik tadqiqotlar uchun eng muhim – yuqori sath birligiga aylanadi. Pragmatik yondashuvlarda fonetik sath birliklari tarkibi keskin ortadi. Ular intonatsiya, ohang, nafas kuchi, to'xtam, sukut, shuningdek, fonemalar sirasiga kirmagan fonatsion vositalar bilan boyiydi. Fonetik jihatdan til vositalari tasnifi nutqiy aktlar nazariyasidan kuch oladi. Aytish mumkinki, asosiy til birliklari qatoriga kirmaydigan mazkur vositalar muloqot jarayonida muntazam mavjud bo'lib, jumla tarkibidagi informasiyaning katta qismi ular orqali yetkaziladi. Ko'rindiki, tilshunoslik masalalariga antroposentrik yondashuvlar til sathlarining muhimlik darajasini kommunikativ-pragmatik nuqtayi nazaridan baholaydi, pirovardida yuqori va quyi sath birliklarning an'anavaiy-struktural ketma-ketligi butunlay teskari holatda namoyon bo'ladi [5-jadval]. Bu tilshunoslik masalalarini asl mohiyatga yaqinlashtiradi, chunki foydalanuvchilar til vositalarini tanlashda eng avvalo, samaradorlikni nazarda tutadilar, grammatic talablarga esa faqat ko'nikmalar asosida amal qiladilar. Shunday ekan, grammatic qoidalari tilni o'rganish yoki o'qitish uchun xizmat qiladi degan fikri ilgari surish o'rinnlidir.



4-jadval. Antroposentrik lingvistikaning ichki tarmoqlari.

Til sathlari	Pragmatik muhimlik darajasi	jihatdan	Grammatik muhimlik darajasi	jihatdan
Fonetika	yugori		past	
Leksikologiya	o'rtachadan yugori		o'rtachadan past	
Morfemika	o'rtacha		o'rtacha	
Morfologiya	o'rtachadan past		o'rtachadan yugori	
Sintaksis	past		yugori	

5-jadval. Til sathlari birliklarining yondashuvalar kesimida muhimlik darajasi.

Antroposentrizm bilan bir paradigmada sun'iy intellekt va korpus lingvistikasini sanash mumkin. Sun'iy intellekt va korpus lingvistikasida maxsus formula, sxema, simvolga asoslangan modellar bo'lgani uchun unda inson omili ta'siri qoliplangan shaklda bo'ladi. Bu ikki bosqichli jarayon bo'lib, muayyan kodlar tizimida shakllantirilgan formula, sxema va simvollarni yaratish va ishga tushirishda yetakchilik qilgan inson omili jarayonlarda uning algoritnik harakatining qabul qiladi. Undagi ong va tafakkur imkoniyatlari cheklangan bo'ladi. Tabiiy tilda esa bunday chegaralanishlar kuzatilmaydi, unda kontekstual o'zgarishlar muntazam va to'xtovsiz ravishda yuz beradi. Nutq vaziyati va inson omili ta'sirida lisoniy birliklar ifodalagan ma'no va mazmun muntazam ravishda o'zgarib turadi. Shuning uchun til materiallarini kommunikatsiya jarayonida o'zgarishi bilan bog'liq muammolarning psixolingvistik tahlili va tadqiqiga ehtiyoj kuchayadi. Pragmalingvistika tarkibiga kiruvchi yo'naliishlar ko'rsatilgan N.M.Vaxtel jadvalida mavjud til manbasidan foydalanish jarayoni bilan bog'liq sohalarigina aks etgan. Nutqiy faoliyatning yuzaga kelishi, boyishi, taraqqiyoti, unda til materialining kengayishi va torayishi masalalarini o'rganuvchi sohalar ham bor. Agar diskurs nazariyasi masalalarini boshqa bir shaklda, masalan, nutqiy ta'sir etish bilan berilgan degan taqdirda ham til resurslarining til egasi tomonidan qabul qilinishi – idrokini o'rganuvchi kognitologiya, undagi muammolar bilan shug'ullanuvchi neyrolingvistika, nutqiy jarayonlar davomida til bazasining boyib borishini tahlil qiluvchi generativ lingvistika sohalari ham

TILSHUNOSLIK

ushbu paradigmadan joy olishga to'la haqli. Pragmatika sohasiga oid tadqiqotlar eksperimental kuzatishlar orqali o'rganiladi.

XULOSA

Til masalalariga antroposentrik yondashish bo'yicha olib borilgan izlanishlardan quyidagi xulosalar olindi:

1. Tilshunoslikda tilni o'rganishga turli yondashuvlar azaldan bo'lgan. Ularning eng zamoniaviysi matnga antroposentrik yondashuvdir.
2. Jonli so'zlashuv tilini o'rganishda grammatic bilimlardan ko'ra pragmatik maqsadni ifoda etishga intilish ustunlik qiladi.
3. Grammatic bilimlar tilni ilmiy o'rganish yoki o'qitish uchun muhim, muloqot uchun asosan pragmatik xususiyatlarni o'zlashtirish talab etiladi.
4. Antroposentrik nazariya asosidagi tadqiqotlar tilni foydalanuvchilar shaxs xususiyati bilan uyg'unlikda o'rganadi.
5. Pragmatikada grammatic jihatdan yuqori sath birliklarining muhimlik darajasini pasayadi, aksincha, quyi sath birligi bo'lgan fonetik bilrliklarning tarkibiy miqdori ortib, muhimlik darajasi ko'tariladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбек тили грамматикаси. I қисм. – Тошкент, 1975. Б. 336.
2. Шоабдураҳмонов Ш. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – 351 б.
3. Фуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили – Тошкент: Ўқитувчи, 1987. 255 бет.
4. Курбонова М., Йўлдошев М. Матн тилшунослиги – Т.: Университет, 2014. 116 бет.
5. Нурмонов А., Махмудов Н., Ахмедов А., Солихўжаев С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1992.
6. Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси (синтаксис) – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
7. Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилдлик. – Т.: Академнашр, 2012.
8. Махмудов Н. Тил типсими тадқики – Тошкент: Мумтоз сўз, 2017.
9. Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари – Тошкент: Akademnashr, 2013. 176 бет.
10. Менглиев Б. Тил яхлит система сифатида – Тошкент: Ниҳол, 2010.
11. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқики – Тошкент: Фан, 2013. 135 бет.
12. Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фанлари доктори ... дисс. – Тошкент, 2001.
13. Qurbanova S. Tilshunoslikda yangi yondashuvlarning vujudga kelishi // FarDU ILMIY XABARLAR – Фарғона, 2022. № 6. –Б. 331-334.
14. Бадий матнда шахс хусусиятларини ифодаловчи воситалар: уларнинг прагматик тадқики // Фарғона прагмалингвистика мактаби. Жамоавий монография. 2 қисмли. 1-қисм. 572 бет. –Б. 158-220.
15. S Qurbanova [On the analysis of lexical units in psycholinguistics](#) International Conference on Research Identity, Value and Ethics, 512-513
16. Q Sayyora [FORMATION OF TEXT ANALYSIS IN LINGUISTICS](#) Modern Journal of Social Sciences and Humanities 4, 58-61
17. Психолингвистикада лексик бирликлар тацлилига доир // Filologiya ta'limi masalalari: muammo va uning innovatsion yechimlari. Ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. II qism. – Farg'on'a, 2022-yil 11-may. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6529336>
18. Курбонова С. Кишилик олмошлари прагматикасига доир // Filologiya va fanlarni o'qitishning dolzarb masalalari –Farg'on'a, 2024. 786 bet. –B. 27-30.
19. Ҳакимов М., Курбонова С. Замонавий тилшунослик масалалари хусусида // Filologiya va fanlarni o'qitishning dolzarb masalalari –Farg'on'a, 2024. 786 bet. –B. 4-7.
20. Гумбольдт, В. О различии строения человеческих языков и его влиянии на духовное развитие человечества [Текст] / В. Гумбольдт // Избранные труды по языкоznанию. – М. : Прогресс, 1984. – С. 80.
21. Osgood C.E., Suci G.J., Tanenbaum P.H. The measurement of Meaning. Urbana, 1957.
22. Pronko N.H. Language and Psycholinguistics. // Psychological Bulletin. Vol. 3, 1946.
23. Slobin D.I. Psycholinguistics. 1974.
24. Steinberg D.D. An Introduction to Psycholinguistics. 1993. Berko J.G., Ratner N.B. Psycholinguistics. 1993.
25. Brosnahan N. Russian and English nonverbal communication. Moscow, 1998.
26. Chomsky N. Syntactic Structures. The Hague, 1957.
27. Dechert H., Raupach N. Psycholinguistic Models of Production. 1987.
28. Российская психолингвистика: итоги и перспективы (1966-2021) Коллективная монография. – М., 2021. 625 с.
29. Выготский Л.С. Мысление и речь. М.-Л.: Государственное социально-экономическое издательство, 1934. 362 с.

30. Леонтьев А.А. Психолингвистика – Ленинград: Наука, 1967.
31. Леонтьев А.А. Психолингвистические единицы и порождение речевого высказывания – М.: Наука, 1969.
32. Караполов Ю.Н. Русский язык и языковая личность - М.: Наука, 1987.
33. Караполов Ю.Н. Язык и личность. М., 1989.
34. Ван Дейк Т.А. Язык. Познание. Коммуникация. - Москва, 1989.
35. Сафаров Ш., Тоирова Г. Нутқинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2007. – 39 б.
36. Сафаров Ш. Прагмалингвистика – Тошкент: Ўзбекистон миллӣ энциклопедияси, 2008. 263-бет.
37. Шаҳобиддинова Ш. Жиноятчилар сленги ҳакида қарашлар // Филологиянинг долзарб муаммолари. "ПЗ-20170926286. Ўзбек суд амалий лингвистикаси тадқиқи" лойиҳаси доирасида ўтказилган Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Андижон, 2019. – Б. 3.
38. Ҳакимов М. Нутқий актлар назарияси – Фарғона, 2020. 120 бет.
39. Ҳожалиев И. Коммуникатив имконият структураси // Ўзбек тили ва адабиёти, 2001, 6-сон. 32-36 б.
40. Курбонова С. Бадиий матннинг психолингвистик таҳлили. Монография. – Фарғона, 2018. 136 бет.
41. Клаус Г. Сила слова – М., 1967.
42. Вахтель Н.М. Прагмалингвистика в таблицах и схемах – Воронеж, 2006. 31 стр. –С. 5.